

CHET TILLARINI O'RGANISH VA O'RGATISH BO'YICHA BUGUNGI KUNDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Talaba: Saydullayeva Rayhona Ilhomjon qizi

Guruh: XT1-2214-guruh

Ilmiy rahbar: G'. A. Jo'rayev

Mamlakatimizda chet tilini o'qitish bo'yicha olib borilayotgan turli xil islohotlar: "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, kollej, litsey va o'liy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim-deydi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Prezidentimiz 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Mamlakatimizda ilm fanning bir nechta yo'nalishlari tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. Bu yil fizika va chet tillarini ana shunday ustuvor sohalar etib belgilandi. O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarida xalqaro hamkorlik kengayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Bugungi kunda yurtimizdagi 25 ta oliy ta'lim muassasasida o'qitish chet tilida olib borilmoqda. 2016-yilda ular atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikatini olgan o'quvchilar soni 3yilda 10 barobarga oshgan. Joriy yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 350 nafar talabaning nufuzli xorijiy universitetlarda o'qishi uchun stiendiyalar ajratilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga qaraganda 5 marta oshgan.

Lekin, joylarda ahvol maqsad qilingan katta rejalarga mos emas. Xususan, ta'lim tizimida 2 mingdan ortiq chet tili o'qituvchisi lavozimi vakant bo'lib qolmoqda. 1ming 400 ta maktabda chet tilini o'qitish sifati mutlaqo qoniqarsiz. Shu sababdan ham Mahkama huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etilishialum qilingan. Bu agentlik dunyoda chet tilining rivojlanishida samarali foyda bergan o'qitish metodikalari dastur va darsliklarni ta'lim tizimida joriy etib, xorijiy tillarni

mukammal o'zlashtirishga ko'maklashadi. Ta'lim muassasalari tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib kamida ,ingliz tili va undan tashqari 9 ta chet tili o'rgatishni tashkillashtiradi.

Shuningdek vazirlik, idora va boshqa ish beruvchilar bilan birga ,xizmatchilarnig lasbiy faoliyatini xorijiy tilda to'liq amalga oshirish imkoniyatini beradigan metodikalarni ishlab chiqib, sharoitga moslagan holda amaliyotga joriy qilinadi.

Davlat tilidan xorijiy tilga va xorijiy tildan davlat tiiga professional tarjima qilish metodikalarini yaratish ham uning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Agentlik xorijiy tillarni bilish reytinggini ham yuritib boradi. Jumladan,xalqaro sertifikatlar dastlabki va o'rta darajasini olgan o'qituvchilar oylik maoshiga 40 foiz yoki yuqori natijalar uchun esa 50 foiz ustuma qoyilishi uning yaqqol samaradorligining ko'rinishidir.

Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni o'rni va ahamiyati: Chet tillarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish uning samaradorligini oshishiga yordam bera oladi. Misol uchun mashg'ulotlar davomidachet tilidagi video roliklar ko'rish orqali o'rganuvchining eshitish ko'nikmasi ham yetarli darajada rivojlanib boradi. Ba'zi bir hollarda esa video roliklar uchun berilgan izohlar ularning yozish, o'qish va hattoki gapirish ko'nikmalarining rivojlanishiga ham yetarlicha o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunday hollarda biz kompyuter, magnitafon, elektor doskalar, proyektor, CD disklar, kasetalar va shunga o'xshash zamonaviy qurollardan foydalanish uning rivojlanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari darslar davomida zamonaviy bir qancha metodlar ham talaba o'quvchilarning chet tilini o'rganishda ancha yengilik yaratadi. Shu o'rimda klaster, baliq skeleti, venn diagrammasi, rolli o'yinlar, aqliy hujum ,savol- javob va shu kabi bir qancha metodlarni aytib o'tishimiz lozim.

Televideniya va shu jumladan , mahalliy telekanallar orqali bolalar ba o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlar tayyorlash hamda ularni translyatsiya qilish,boshqa xalqlarning tarixi va ma'daniyati jahon ilmi va texnikasiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop,xorijiy hamda multiplikatsiyaviy filmlarni o'zbek tilidagi subtitri

yordamida muntazam ko'rib borishini amalga oshirish; Ziyonet tarmog'I orqali o'quvchilarni chet tilini o'rganishda yordam beruvchi manbalar bilan ta'minlash ;o'quvchilarni zamonaviy kompyuter; rasmlı gazeta va jurnallar va shu kabi bir qator chet tiliga oid resurslar bilan taminlab borish chet tilining rivojiga ulkan turtki bo'ladi. Shuning bilan birgalikda hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar asta sekinlik bilan an'anaviy o'qitishning o'rnini egallamoqda. Jumladan ijtimoiy tarmoqlarda o'tkaziladigan online to'garak va kurslar chet el o'qituvchilarning yurtimizga kirib kelishi ham bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J. Jalolov, G.T. Mahkamova, Sh. S. Ashurov. "ENGL.III LANGUAGE TEAM ING METHODOLOGY".
2. Rasulova. M. I. "Challenges and Solutions in English Language Teaching to Students"
3. <https://cyberleninka.ru>
4. <https://baxtiyor.uz>.
5. Ozoda, Xakimboyeva, Djurayeva Dilnavoz, and Turg'unova Dinara. "Teaching vocabulary in context for A1 level learners." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.4 (2021): 1416-1422.